

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA OT SO‘Z TURKUMINING QIYOSIY ASPEKTI

Xummedova O‘g“ilnavot
*Ajiniyoz nomidagi NDPI ning
o‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolamizza o‘zbek va turkman tillarida ot so‘z turkumining qonun-qoidalarini, guruhlarga ajratilishini va ikki tilda qanday nomlar bilan guruhlanishini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar. Ot so‘z turkumi, atoqli va turdosh otlar, aniq va abstrakt otlar, has, jins, abstrakt va konkret otlar

Summary. In this article, you can find out the rules of the noun and Turkmen language divided into groups, groups, and what are divided into two languages.

Keywords. A noun-word, well-known and related nouns, accurate and abstract nouns, hass, gender, abstract and concraxes

Резюме. В этой статье вы можете узнать правила языка лошади и туркменов, разделенных на группы, группы и то, что разделены на два языка.

Ключевые слова. Лошади, хорошо известные и родственные лошади, точные и абстрактные лошади, хасс, пол, аннотация и бетонные.

O‘zbek tilida shaxs, narsa ma’nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, **kim?**, **nima?**, **qayer?** so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar **ot so‘z turkumi** deyiladi. Otlar **kishi nomlarini**: *Ahmad, Nilufar, Sardor, Go‘zal* kabi; **o‘rin-joy nomlarini**: *Farg‘ona, Qashqadaryo, Qoraqolpog‘iston, maktab* kabi; **daraxt va o‘simlik nomlarini**: *majnuntol, terak* kabi; **narsa-buyum nomlarini**: *kosa, qo‘sish, payola* kabi; **vaqt-fasl nomlarini**: *qish, kuz, mart, iyun* kabi; **voqe-a-hodisa nomlarini**: *urush, zilzila* kabi; **Yer va osmon jismlari nomlarini**: *yer, tuproq, yulduz* kabi hamda **mavhum tushunchalarini**: *sevgi, tinchlik, orzu* kabilarni bildiradi. Kim? so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga, nima? so‘rog‘i narsa-buyumni bildiruvchi so‘zlarga, qayer? so‘rog‘i joy nomini bildiruvchi so‘zlarga beriladi.

Turkman tilida esa otlar mustaqil ma’no anglatadigan so‘z turkumining biri bo‘lib, predmetning, narsaning nomini yoki predmetlashgan tushunchaning nomini bildiradigan so‘zlarga ot deyiladi. Otlar turkman tilida “**kim?**” (**kim**), “**näme?**” (**nima**), “**nire?**” (**qayer**) degan savollarga javob berdi. Kim? so‘rog‘ini inson ismlari uchun foydalaniib, insonning ismi, familiyasi aniqlanadi: *Oraz, Nazarow*. Kim? so‘rog‘ini yana **kasb-hunar otlari** : *işçi (ishchi), mugallym (ustoz), çopan (cho‘pon)*, **qarindoshlikni bildiruvchi otlar**: *ata (ota), ene (ona), dayý (tog‘a)*. Nima? so‘rog‘ini odamdan boshqa jonli va jonsiz narsa, predmetlarni aniqlashda javob beradi. Masalan: *bilbil (bulbul), geçi (echki)*. O‘rin-joy nomlrini bildiradigan otlar

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

nire? yani qayer? so‘rog‘iga javob beradi: *Aşgabat* (*Ashg‘abot*), *Mary* (*Mariy*), *Garagum* (*Qoraqum*), *oba* (*ovul*), *şäher* (*shahar*).¹

O‘zbek tilida otlar bir turdagи predmetlarning birini yoki umumiy nomini ifodalashiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: **Atoqli otlar va turdosh otlar**

Atoqli otlar atab qo‘yilgan nomlardir. Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar **atoqli otlar** sanaladi.

Atoqli otlarga quyidagilar kiradi. Ular:

1. **Ism, familiya, ota ismi, taxallus, laqab:** *Erkin Vohidov*
2. **Planeta, yulduz nomlari:** *Mars, Neptun, Uran, “Katta Ayiq”, Yer*
3. **Geografik joy nomlari:** *O‘z bekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo*
4. **Korxona, tashkilot, muassasa nomlari:** “To‘xtaniyo ‘z” fermer xo‘jaligi, “Malika»ishlab chiqarish birlashmasi, “Afrosiyob” mehmonxonasi.
5. **Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar:** *Boychibor, Girko‘k*
6. **Badiiy asar, gazeta, jurnal nomlari:** “O‘zbegin» qasidasi, “Ufq”romani, “Sinfosh» jurnali, “Bekajon” gazetasi.

Turdosh otlar atoqli otdan farqli ravishda bir turdagи predmetlar – shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayonlarning umumiy nomini ifodalaydi. Masalan: *mamlakat, kitob, shahar, daryo, mashina kabilar turdosh otlardir*. Turdosh otlar ifodalayotgan tushunchasining ma’nosiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Ular: **Aniq otlar va mavhum (abstrakt) otlar**

Aniq otlar: sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘gan narsalarni bildirgan otlar aniq otlardir. Soddagina aytganda, ko‘z bilan ko‘rish, qo‘l bilan ushslash va sanash mumkin bo‘lgan otlardir. Masalan: *kitob, mashina, uy, eshik, dutor, qalam, o‘rik, traktor*.

Mavhum (abstrakt) otlar: sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘magan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga mavhum otlar deyiladi. Masalan: *baxt, pari, farishta, uyqu, dev, xayol, aql, o‘y, go‘zallik*.

Turkman tilida otlar leksik-semantik farqlanishi bo‘yicha turli ko‘rinishlarda bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan otlar: “**Has** atlar”, “**jyns** atlar”, “**abstrakt** atlar”, “**konkret** atlar” deb bo‘linadi.

Odamlarga yoki boshqa narsalarga atab qo‘yiladigan otlarga “**has atlar**” deyiladi. Bular konkret odamlarni yoki narsalarni farqlash mazmuniga ega. Ularga quydagilar kiradi:

¹ Häzirki zaman türkmen dili. morfologiya. Ýokary we orta hünär okuwy mekdepleri üçin okuwy gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2015.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1. Insonlarga xususiy atalgan otlar: *Aman* (Omon), *Oraz* (O‘roz) va ularning familiyalari: *Meredow* (Meredov), *Orazowa* (O‘razova); insonlarga qo‘yiladigan laqablar: *Pyragy* (Firog‘iy), *Azady* (Ozodiy), *Andalyp* (Andalip).

2. Toponimik xususiy otlar : *Gypjak* (Qipchoq), *Mary* (Mariy)

3. Astronomik xususiy otlar: *Aý* (Oy), *Gün* (Kun), *Ýer* (Yer)

4. Korxonalarga, o‘quv joylarga, kinoteatrlarga, gazeta-jurnallarga, badiiy yoki ilmiy asarlarga qo‘yiladigan otlar: Garagum *derýasy* (Qoraqum daryosi), “*Türkmenistan*” *gazeti* (“Turkmanston” gazetasi)

5. Uy hayvonlariga atab qo‘yilgan otlar : *Dordepel* (To‘rtepel), *Gaplaň* (Qoplon)

“Jyns atlar” bir qismdagi, jinsdagi narsalarning barchasiga tegishli bo‘lgan guruhning, jinsnинг nomini anglatadigan otlardir. Masalan: qalam, daftar, odam, qush, hayvon, temir, daraxt va boshqalar.

“Abstrakt atlar” turli xil tushunchaning, o‘y-fikrning, hodisaning nomini bildiradi. Masalan: aql, baxt, niyat, maqsad va boshqalar

“Konkret atlar” ma’no jihatdan, ko‘rib bo‘ladigan narsalarning nomini anglatadi. Masalan: non, qovun, tarvuz, fil, qalam, kitob, qo‘l, oyoq tish va boshqalar².

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘zbek tilida ham turkman tilida ham ot so‘z turkumlarining guruhga bo‘linishi, nomlanishi ozgina farq qilarkan. Ikki tilni qiyoslash orqali biz turkman tilida o‘qiydigan o‘quvchilar bemalol, sodda qilib o‘zbek tilini o‘rganishlari uchun sharoit yaratgan bo‘lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Häzirki zaman türkmen dili. morfologiýa. Ýokary we orta hünär okuwy mekdepleri üçin okuwy gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2015.
2. Шоабдураҳмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Фан, 1980
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009
4. Allambergenovich, K. G. (2019). BILINGUALISM AND POLYLINGUALISM IN THE CASE OF THE LANGUAGES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 32-41.
5. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.

² Häzirki zaman türkmen dili. morfologiýa. Ýokary we orta hünär okuwy mekdepleri üçin okuwy gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2015.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

6. Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Худаярова, М. Т. (2023). ЎЗБЕК ТУРКМАН ТИЛЛАРИНИНГ ФОНЕТИК ТИЗИМИДАГИ ЎХШАШЛИК ВА БАЪЗИ ФАРҚЛАР. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 86-93.
7. Худаярова, М., Уразбаев, П., & Сапарова, А. (2022). Қорақалпоғистондаги туркй халқлар тилидаги ўзига хосликлар. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 10-11.